

“Oynadagi aks” mashqi.

Maqolning oynadagi aksini juftlikda o‘qitiladi va mazmuni yoritiladi.

Do‘st orttiramam desang,
Shirin suhbat qil.

Tez aytish musobaqasi o‘tkaziladi.

Donogina Durdona Duyoraga dugona.

Mashq daftari bilan ishlash.

Daftardagi topshiriq bajariladi.

She‘r matnida tilga olingan bolalarning ismlari topib yoziladi. O‘quvchilar she‘rdan chiqargan xulosalarini daftarga yozadilar. Bajarilgan ishlar muhokama qilinadi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- She‘r nima haqida ekan?
- Bugungi o‘rganganlaringizni qaysi holatda kundalik hayotda qo‘llaysiz?
- Fikr to‘ldiriladi: *Do‘st tutinish uchun...*

V. Uyga vazifa. (1 daqiqa)

She‘rni ifodali o‘qing. Do‘stlik haqidagi maqollardan yod oling.

4-Mavzu: Do‘stlik– mustahkam rishta

Darsning maqsadi:

- Hidoyat Olimovaning “Chin do‘st” ertagi bilan tanishtirish;
- “Do‘stlik -mustahkam rishta” ekanligini tushuntirish;
- bog‘lanishli nutqini o‘stirish.

Tayanch so‘zlar: Qarg‘a, Chumchuq, yordam, bir-birini qo‘llash, mustahkam rishta.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: *“Adashgan harflar”* mashqi.

Berilgan soʻzdagi har bir harfdan boshlanadigan yangi soʻzlar tuzing.

RISHTA

II. Oʻtilganlarni takrorlash. (8 daqiqa)

“Bir qishloq bolalari” sheʼri ifodali oʻqitiladi. Doʻstlik haqidagi maqollardan yoddan soʻraladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq: *“Gap tuzish”* mashqi.

“Doʻst” soʻzi bilan partadoshingizga gaplar tuzib bering.

Muhokama uchun savollar.

1. Qanday gaplar tuzdingiz?
2. Oʻrtogʻingiz tuzgan gapni aytib bering.

Mavzuni tushuntirish.

“Ibrat bola”ning gaplari darslikdan oʻqitiladi.

Doʻstlik nafaqat insonlar oʻrtasida, balki, millat va davlatlar oʻrtasida, odam va hayvonlar hamda jonivorlar orasidagi mustahkam rishtadir.

Oʻqilgan gapning mazmuni darslikdagi rasmga bogʻlanib suhbat uyushtiriladi. Oʻquvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Ularga qanday taʼrif bera olasiz?
3. Chin doʻstlik qanday boʻlishi kerak deb oʻylaysiz?

Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha maʼlumot berish.

Olimova Hidoyat Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi aʼzosi, jurnalist. Hidoyat Olimova 1959-yil Forish tumanida tavallud topgan. Uning **“Qizil olma”**, **“ Orzu daraxti”**, **“Gʻaroyib hukm”** ertak va hikoyalar toʻplami oʻquvchilar koʻnglidan oʻrin olgan.



Hidoyat Olimovaning “Chin doʻstlik” ertagi navbatma-navbat oʻqitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Qargʻa bilan qanday voqea yuz beribdi?
2. Nima uchun qargʻa bilan chumchuq doʻstlashibdi?
3. Ayting-chi, chumchuqning shimol tomonga uchushiga nima sabab boʻldi?
4. Nega ular yarim yoʻldan orqaga qaytishga majbur boʻlishdi?

5. Siz qarganing bu ishini qanday baholaysiz? Fikringizni bildiring.

Matndagi notanish soʻzlar ustida lugʻat ishi oʻtkaziladi.

iltijo – yalinib-yolvorib soʻrash.

zaif – nimjon, kuchsiz.

bardosh – chidam, sabr, iroda, qatʼiyat.

xijolat – uyalish hissi.

“Tanlab oʻqish” mashqi.

1. Qargʻa bilan chumchuqning doʻst boʻlishiga sabab boʻlgan voqeani ifodalovchi gaplarni oʻqing.

2. Chumchuqning iltijoli ohangda aytgan gaplarini oʻqing.

3. Ularning shimol tomonga uchish jarayoni haqidagi gaplarni oʻqing.

“Topib, tuzamiz” mashqi.

“Chin” soʻziga maʼnodosh va qarama-qarshi maʼnoli soʻz topiladi. (chin-rost, chin-yolgʻon) Topgan soʻzlaringiz bilan gaplar tuzing.

Mashq daftari bilan ishlash.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

Berilgan parchada adashgan soʻzlarni toping va tagiga chizing.

Kunlarning birida **qargʻa kiyik** uchun qoʻyilgan toʻrga tushib oʻzini har yonga urib oh-voh deya yordam kutayotgan **chumchuq**ni koʻrib qolibdi. **Qargʻa** darhol **bedana**ni topib birgalashib uni qutqaribdi. **Chumchuq** uning bu olijanobligiga javoban doʻstlik taklif qilibdi. Shunday qilib **kiyik** bilan **bedana** doʻstlashibdilar.

Fikrlar mazmuni toʻgʻri boʻlsa, bulutchani moviy rangga boʻyang. Xato boʻlsa, kulrangga boʻyang.

T/r	Fikrlar mazmuni	
1	Chumchuq uzoq safarlarga chiqmagan, oʻzga joylarni koʻrmagan ekan.	
2	Erta bahorda qargʻa uchib ketibdi.	
3	Ular yoʻl yarmiga yetmasdan ortga qaytishga qaror qilishibdi.	
4	Chumchuq darhol sichqonni topib birgalashib qargʻani qutqaribdi.	

“Yashiringan so‘zlar” mashqi.

Kichik jamoada ishlash uchun topshiriq. *Yashiringan so‘zlarni topib o‘qing.*

Do‘stlikitobidaryostiqbola

(Do‘stlik, kit, kitob, tobi, daryo, yostiq, bola)

Tez aytish musobaqasi o‘tkaziladi.

Qora qarg‘a qorga qo‘ndi,

Qorni cho‘qib “qar” deb qo‘ydi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

Darsda nimalar sizga qiziq bo‘ldi?

Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

V. Uyga vazifa. (1 daqiqa)

Ertakni o‘qing va mazmunini yuzasidan savollar tuzing.